



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI BOJXONA QO‘MITASI

CUSTOMS COMMITTEE UNDER THE MINISTRY OF ECONOMY AND FINANCE
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi 3. tel. (55) 502-76-00, www.bojxona.uz, customs@exat.uz, info@customs.uz

2026-yil 2-iyul

03-05/15-8111-son

Bojxona brokerlar uyushmasi

Toshkent sh., Yashnobod t., Farg‘ona yo‘li k-si, 23

Bojxona qo‘mitasi tomonidan Sizning bojxona brokerlari uyushmasi a‘zolari hamda bojxona brokerlari vakillari bilan bo‘lib o‘tgan ochiq muloqot davomida ko‘tarilgan masalalaringiz ko‘rib chiqilib, quyidagilar ma‘lum qilinadi.

1. Bojxona qo‘mitasining “Eksport uch qadam” moduli hamda “E-kontrakt” tashqi savdo axborot tizimi o‘rtasidagi texnik nomuvofiqliklarni bartaraf etish masalasi yuzasidan.

Mazkur masala yuzasidan tegishli texnik tahlillar o‘tkazilib, “Eksport uch qadam” moduli hamda “E-kontrakt” tashqi savdo axborot tizimi o‘rtasidagi ma‘lumotlar almashinuvida kuzatilgan texnik nomuvofiqliklarni bartaraf etish choralari ko‘rildi.

Hozirgi kunda mazkur axborot tizimlari o‘rtasida ma‘lumotlar almashinuvinging uzluksiz ishlashi ta‘minlangan bo‘lib, eksport bojxona rasmiylashtiruvi jarayonida ushbu texnik nosozliklar bartaraf etilgan.

2. Import operatsiyalarida TIF TN kodi o‘zgargan taqdirda “E-kontrakt” tizimiga majburiy o‘zgartirish kiritish talabini qayta ko‘rib chiqish taklifi yuzasidan.

Bojxona kodeksining 243-moddasiga muvofiq kontraktlarning (shartnomalarning, kelishuvlarning) bajarilishi monitoringi davomida Tizimdagi ma‘lumotlar bojxona yuk deklaratsiyasi ma‘lumotlari bilan solishtiriladi hamda tovarlarning nomi, tavsifi, assortimenti va boshqa muhim ko‘rsatkichlarining **tashqi savdo shartnomasi ma‘lumotlariga muvofiqligi nazorat qilinadi.**

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-maydagi 283-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tashqi savdo operatsiyalari amalga oshirilishi monitoringini olib borish va nazorat qilish tartibi to‘g‘risida” Nizomning 5-bandiga muvofiq kontrakt shartlariga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar qo‘shimcha bitim bilan qayd etilishi kerak hamda kontraktlar bilan bo‘lgani singari tartibda Tizimga kiritiladi

Mazkur nizomning 11-bandiga asosan tashqi savdo kontraktlarining shartlariga, shu jumladan, **tovarlar qismiga** qo‘shimcha kelishuvlarsiz o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish **taqiqlanadi.**

Shuningdek nizmoning 14-bandiga ko'ra, Bojxona qo'mitasi hududiy boshqarmalarining bojxona **postlari** xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan Tizimga kiritilgan kontrakt (shu jumladan, invoices) ma'lumotlarini **“erkin muomalaga chiqarish (import)”**, “eksport” bojxona rejimlaridagi bojxona yuk deklaratsiyasi ma'lumotlari bilan, shuningdek, tijorat banklar tomonidan Tizimga kiritilgan hisob-kitob ma'lumotnomasida ko'rsatilgan valyuta miqdorini to'lov kafolatlangan tovarlarning eksport qiymatiga nisbatan muvofiqligi yoki ortiqligi bilan **solishtiradilar** hamda farqlar mavjud bo'lmaganda qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda bojxona yuk deklaratsiyasini rasmiylashtiradilar.

Shu munosabat bilan, import qilinayotgan tovarning TIF TN kodi bojxona rasmiylashtiruvi jarayonida aniqlashtirilgan yoki o'zgartirilgan hollarda, mazkur o'zgarishni Tizimda ham aks ettirish kontrakt ma'lumotlari bilan bojxona yuk deklaratsiyasi ma'lumotlarining o'zaro muvofiqligini ta'minlash hamda tashqi savdo operatsiyalari monitoringini amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq amalga oshirish uchun zarur hisoblanadi.

Shu bilan birga, Bojxona qo'mitasi “Eksport uch qadam” moduli hamda “E-kontrakt” tashqi savdo axborot tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish, amaliyotda yuzaga kelayotgan masalalarni birgalikda muhokama qilish va ularning yechimlarini ishlab chiqish bo'yicha Bojxona brokerlari uyushmasi bilan hamkorlik qilishga tayyorligini ma'lum qilamiz.

Rais o'rinbosari



N.Musamuxamedov

*Ijr.: O.Xasanov, B.Vohidov
Tel: (55) 502-76-00 (78-04)*

OMH6975

OMH6975

OMH6975